

SIROJIDDIN SAYYID SHE’RIYATIDA FOLKLORIZMLARNING O’RNI

Akmuratova Biybisanem Arislanbay qizi,

*Qoraqalpoq davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası
assistent o‘qituvchisi
[Email: bibisanem@mail.uz](mailto:bibisanem@mail.uz)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sirojiddin Sayyid she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoir ijodida Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlar, inson qalbining nozik kechinmalari hamda vaqt va umr o‘tkinchiligi mavzularining ifodalanishi yoritiladi. She’rlardagi obrazlilik, falsafiy teranlik va musiqiy ohangning badiiy ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, shoir lirikasining zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati haqida xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: qadriyat, qalb, falsafiy, milliy, modern, poetika.

Аннотация. В данной статье анализируются идейно-художественные особенности поэзии Сироджиддина Саййида. В творчестве поэта освещаются темы любви к Родине, национальных ценностей, тонких переживаний человеческой души, а также мимолетности времени и жизни. Раскрывается художественное значение образности, философской глубины и музыкального тона в стихотворениях. Также даются выводы о роли и значении лирики поэта в современной узбекской литературе.

Ключевые слова: ценность, душа, философия, национальный, модерн, поэтика.

Abstract. This article analyzes the ideological and artistic features of Sirojiddin Sayyid's poetry. The poet's work illuminates the expression of love for the Motherland, national values, the subtle experiences of the human soul, and the transience of time and life. The artistic significance of imagery, philosophical depth, and musical tone in the poems is revealed. Also, conclusions are drawn about the place and significance of the poet's lyrics in modern Uzbek literature.

Keywords: value, soul, philosophical, national, modern, poetics.

Kirish. Sirojiddin Sayyid – zamonaviy o‘zbek she’riyatining yirik namoyandalardan biri. U o‘z ijodida Vatanga muhabbat, inson qalbining nozik kechinmalari, milliy qadriyatlar va ma’naviy poklik g‘oyalarini chuqur va ta’sirchan ifodalagan shoirdir. Uning she’rlari samimiyligi, badiiy yuksakligi va falsafiy teranligi bilan ajralib turadi. Sirojiddin Sayyid XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek adabiyotiga kirib kelib, qisqa fursatda o‘zining betakror ovozigaga ega bo‘ldi. U nafaqat shoir, balki publitsist va jamoat arbobi sifatida ham faoliyat yuritgan. Uning ijodi mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Shoirning ko‘plab she’riy to‘plamlari nashr etilgan bo‘lib, ular kitobxonlar tomonidan iliq kutib olingan. Uning asarlari orqali inson ruhiyati, muhabbat, sadoqat, Vatan taqdiri kabi mavzular keng yoritiladi.

Asosiy qism. Sirojiddin Sayyid ijodida milliy ruh kuchli seziladi. U o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi, qadriyatlari va urf-odatlarini she’riyatga olib kirgan ijodkorlardan biridir. Sirojiddin Sayyidning “Salqin xarsanglar kaftida”, “Sevgi mamlakati”, “Asragil”, “Mehr qolur, muhabbat qolur”, “Kuydim”, “Vatanni o‘rganish”,

“Ko‘ngil sohili”, “Ko‘ksimdagi sohillarim”, “Qaldirg‘ochlarga ber ayvoningni”, “So‘z yo‘li” kabi o‘n beshga yaqin she‘riy to‘plamlari chop etilgan. Eng muhimi, uning ijodi to‘plamdan to‘plamga, kitobdan kitobga sayqallanib bordi. Mohiyatan teran, badiiy jihatdan barkamol she‘rlari o‘quvchi qalbini zabt etdi. Shoir she‘riyatida ona tiliga muhabbat alohida o‘rin egallaydi. Til millat ruhi va qalbining ifodasi sifatida talqin qilinadi. Xalqona iboralar, maqol va hikmatli so‘zlardan mahorat bilan foydalanish orqali shoir milliy ruhni yanada jonlantiradi. Shuningdek, o‘zbek xalqining urf-odatlarini, an‘analari, oilaviy qadriyatlarini ham she‘rlarda samimiy va iliq ohangda tasvirlanadi. Bu tasvirlar orqali milliy hayot tarzi va ma‘naviy muhit badiiy aks etadi.

Sirojiddin Sayyid she‘riyatida xalq og‘zaki ijodiga xos sodda, lo‘nda ifoda usuli mumtoz adabiyotimiz ohanglari bilan uyg‘unlashib ketadi. Shoir she‘rlarida xalqonalik kuchli namoyon bo‘lgan:

Sho‘rlik momom. Bir umr giryon bo‘ldi,
Gohi u yon, gohida bu yon bo‘ldi:
Kelinlarni yarashtira olmayin
Butun umr yurak-bag‘ri qon bo‘ldi.

“Sho‘rlik momom” iborasining o‘ziyoq xalq og‘zaki ijodiga xos murojaat shaklini eslatadi. “Sho‘rlik” so‘zi achinish, mehr va hamdardlik ma‘nosini ifodalab, obrazga samimiylik bag‘ishlaydi. Folklorda bunday sifatlashlar tez-tez uchraydi (masalan, “bechora”, “sho‘rlik”, “beva bechora” kabi). “Bir umr giryon bo‘ldi” misrasi mubolag‘a va umumlashtirish asosiga qurilgan. “Bir umr” ifodasi folklor qo‘shiqlaridagi doimiy iztirobni anglatadigan an‘anaviy shakldir. “Giryon” (yig‘lovchi) so‘zi esa mumtoz va xalqona qatlamning uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. “Gohi u yon, gohida bu yon bo‘ldi” satrida takror va parallelizm mavjud. Bu usul xalq qo‘shiqlariga xos ritmik va ohangdor qurilmani yuzaga keltiradi. Mazmunan esa momoning ikki o‘t orasida qolganini, murosasizlik ichida sarson bo‘lganini bildiradi. “Kelinlarni yarashtira olmayin” misrasi maishiy hayot manzarasini beradi. Oila ichidagi kelinlar o‘rtasidagi ziddiyat – xalq hayotida ko‘p uchraydigan mavzu. Shoir shu oddiy voqelik orqali ayolning ruhiy iztirobini ochadi. “Butun umr yurak-bag‘ri qon bo‘ldi” – folklorga xos obrazli ibora. “Yurak-bag‘ri qon bo‘lish” xalq tilida chuqur dard va armonni ifodalovchi frazeologizmdir. Bu yerda ham mubolag‘a va hissiy kuch ustuvor. Shoir oddiy oila voqeasi orqali katta ijtimoiy-ruhiy dramatismni ifodalaydi. Bu esa folklorizmning asosiy xususiyatlaridan biri – oddiy hayotiy voqeani umumxalq dardiga aylantirish tamoyiliga mos keladi.

Tog‘alarim yurar qadlari so‘roq,
Ko‘ngillari yorishmas yoqsa chiroq.
Kenjalari qirqqa etmay keksaygan,

O‘rtanchasi to‘ng‘ichidan qarriroq.

Ushbu misralarda oddiy bir oila vakillari tasviri orqali avlodning ruhiy charchog‘i, zamon og‘irligi, hayot sinovlari ifodalangan. Shoir shaxsiy kuzatuvni umumxalq dardiga aylantiradi. Bu esa folklorizmning asosiy xususiyati – individual obrazni kollektiv ruh darajasiga ko‘tarish tamoyiliga mos keladi.

Nevaralar yurar edi harbiyda,

Biri sharqda, biri dunyo g‘arbida.

Ular qaytdi. Momom esa hozir ham

Yig‘lab yotgan bo‘lsa kerak qabrida.

“Nevaralar yurar edi harbiyda,

Biri sharqda, biri dunyo g‘arbida.”

Ushbu misralarda makon kengligi tasviri mavjud. “Sharq” va “G‘arb” qarama-qarshiligi orqali dunyo miqyosi ochiladi. Bu epik kenglik unsuri bo‘lib, folklorga xos umumlashtirishni yuzaga keltiradi. Harbiy xizmat motivi esa ajralish, sog‘inch va xavotir timsoli sifatida talqin etiladi. Odatda xalq qo‘shiqlarida ham yigitning safarga ketishi fojiviy ohang bilan tasvirlanadi.

“Ular qaytdi. Momom esa hozir ham...” Bu satrda keskin pauza (nuqta orqali ajratish) drammatizmni kuchaytiradi. Nevaralarning qaytishi – quvonchli hodisa. Ammo undan keyingi zid holat fojiviy burilishni yuzaga chiqaradi.

“Yig‘lab yotgan bo‘lsa kerak qabrida.” Bu misrada kuchli mubolag‘a va ramziy tasvir bor. “Qabrida yig‘lab yotgan” – folklorona tasavvur. Xalq og‘zaki ijodida marhumning ruhi tiriklar taqdiridan befarq emas degan qarash mavjud. Shoir ana shu e‘tiqodiy tasavvurni poetik vosita sifatida qo‘llaydi. Bu yerda onaning dardi o‘lim bilan ham tugamasligi g‘oyasi ilgari suriladi. Momoning iztirobi abadiylashtiriladi. Shoir bu misralar orqali insoniy armon va kechikkan taskin g‘oyasini ilgari suradi. Nevaralar qaytgan bo‘lsa-da, momo bu quvonchni ko‘ra olmadi. Bu – hayotning achchiq paradoksi. Aslida, bu yerda bir oila qismati emas, balki zamon fojiviyati aks etgan. Shoir individual dardni milliy ruh darajasiga ko‘taradi. Onalik iztirobi esa abadiy va muqaddas qadriyat sifatida talqin etiladi. Umuman olganda Sirojiddin Sayyid ijodidining o‘ziga xos uslubi, ijodiy usuli uni boshqa shoirlardan ajratib turadi. Uning she‘riyatida milliy o‘ziga xoslik, xalqchilik bo‘rtib turadi. Sirojiddin Sayyid ijodi xalqimizning milliy uyg‘onishiga xizmat qiladi. Shoirning badiiy iste‘dodi uning ruhiy olamidagi qudratli kuchlar – xalqchilik, insonparvarlik, adolat va haqiqatga xizmat qilish istagi, vatanparvarlik, millatsevarlik ideallariga sadoqati va fidoyiligida yaqqol ko‘rinadi.

Endi bunda kechalari oy yig‘lar,

Piyolada ichilmagan choy yig‘lar.

Yaproqlarni duv-duv to‘kkan shamolga,
Qo‘shilishib so‘ri, hovli-joy yig‘lar.

Ushbu misralarda shoir inson o‘limidan keyingi ma‘naviy bo‘shliqni ko‘rsatadi. Momo yo‘qligi nafaqat oila, balki butun xonadon ruhiyatini o‘zgartirgan. Shoir bevosita “uy huvillab qoldi” demaydi. Aksincha, borliqni yig‘latadi. Shu orqali dard ko‘lami kengayadi va fojiviy lirizm kuchaygan.

Qo‘shilishib so‘ri, hovli-joy yig‘lar.”

Bu misrada umumiy jonlantirish mavjud bo‘lib butun hovlidagi insonlarning ruhan ezilganligi aytilgan. So‘ri – suhbat va oila markazi, hovli-joy esa butun xonadon timsoli. Inson yo‘qolsa, makon ham yetim qoladi degan g‘oya ilgari suriladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Sirojiddin Sayyid she‘riyatida folklorizm milliy poetik tafakkurning asosiy tayanch qatlamlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlil qilingan parchalar shuni ko‘rsatadiki, shoir xalq og‘zaki ijodi an‘analarini zamonaviy lirizm bilan uyg‘unlashtirib, individual dardni umumxalq ruhiyati darajasiga ko‘tara olgan. Shoirning lirik kechinmalarida, badiiy mushohadalarida qadimiy she‘riy shakllarning zamonaviy mazmuni bilan to‘ldirishi, ichki ritm va ohangning modern poetikaga xos obrazlar tizimidagi erkinlik va ramziy-falsafiy teranlik uning poeziyasini an‘naviy asosda novatorlik ruhida yangi ijodiy makonga aylantiradi. Shu bois Sirojiddin Sayyid ijodi adabiyotimizda an‘ana yangilanishning dialektik birligi sifatida o‘rganishga arzigulik hodisadir. Natijada uning she‘riyatida folklorizm tashqi bezak emas, balki mazmun va g‘oyaning markaziy o‘qi vazifasini bajaradi. Oddiy oila qismati orqali milliy xotira, avlodlar davomiyligi va insoniy armon falsafasi yoritiladi. Sirojiddin Sayyid ijodida folklorizm milliy ruhni saqlovchi, tarixiy va ma‘naviy qadriyatlarni badiiy ravishda davom ettiruvchi estetik hodisa sifatida muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sirojiddin Sayyid. Uyindagi beshiklar. – Toshkent “Yozuvchi” nashriyoti, 1996.
2. Sirojiddin Sayyid. Dil fasli. – T., 2007.
3. Sirojiddin Sayyid. Yashasin yomg‘irlar. – T., 2007.